



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM

OPEN ACCESS

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	



YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI



Mahmudov Abrorxon Axmadxonovich t.f.f.d (PhD)
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti talabasi
(namdtu.uz)
husniddin2206@gmail.com tel. raqam 95-001-71-06,
ORCID <https://orcid.org/0009-0003-2330-2327>
Avtomobil transportida yuk tashish asoslari

Annotatsiya: Mazkur ishda yuklarni tashish jarayonida qo'llaniladigan asosiy transport hujjatlarining mazmuni, ahamiyati va huquqiy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, yuk xati, konosament, hisob-faktura, yo'l varaqasi va boshqa hamroh hujjatlarning tashish jarayonidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, turli transport turlari (avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz transporti) bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ishda xalqaro va milliy qonunchilik asosida transport hujjatlarining yuritilishi, ularning yuk xavfsizligi, hisob-kitob va javobgarlikni belgilashdagi roli tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: yuklash-tushirish, hujjatlashtirish, sertifikatlash, sug'urta, xavfsizlik, yuklash protokoli.

Annotation: This paper analyzes the content, significance, and legal aspects of the main transport documents used in the process of cargo transportation. In particular, the role of documents such as the bill of lading, consignment note, invoice, waybill, and other accompanying documents in the transportation process is highlighted. In addition, the specific features of documents оформляемых for different modes of transport (road, railway, air, and sea transport) are considered. The study also examines the management of transport documents based on international and national legislation, as well as their role in ensuring cargo safety, settlements, and liability determination.

Keywords: loading and unloading, documentation, certification, insurance, safety, loading protocol.

Аннотация: В данной работе анализируются содержание, значение и правовые аспекты основных транспортных документов, используемых в процессе перевозки грузов. В частности, раскрывается роль накладной, коносамента, счета-фактуры, путевого листа и других сопроводительных документов в процессе транспортировки. Кроме того, рассматриваются особенности оформления документов для различных видов транспорта (автомобильного, железнодорожного, воздушного и морского). В работе также проанализированы вопросы ведения транспортной документации на основе международного и национального законодательства, а также их роль в обеспечении безопасности груза, расчетах и определении ответственности.

Ключевые слова: погрузочно-разгрузочные работы, документооборот, сертификация, страхование, безопасность, протокол погрузки.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yuklarni tashish jarayoni iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ishlab chiqarish hajmining ortishi, savdo aloqalarining kengayishi va xalqaro logistika tizimlarining rivojlanishi transport xizmatlariga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Shu jarayonda yuklarni manzildan manzilga xavfsiz, tezkor va qonuniy yetkazib berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuk tashish jarayonining muhim elementlaridan biri bu transport hujjatlaridir. Ushbu hujjatlar nafaqat yukning harakatini rasmiylashtiradi, balki yuk jo'natuvchi, tashuvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Transport hujjatlari yukning turi, miqdori, qiymati, jo'natish va yetkazib berish shartlari haqida aniq ma'lumot beradi hamda tomonlar o'rtasidagi majburiyat va javobgarlikni belgilaydi.



Har bir transport turi uchun o'ziga xos hujjatlar tizimi mavjud. Masalan, avtomobil transportida yo'l varaqasi va yuk xati muhim bo'lsa, dengiz transportida konosament asosiy hujjat hisoblanadi. Havo transportida esa avia yuk xati qo'llaniladi. Ushbu hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi yuklarning yo'qolishi, shikastlanishi yoki kechikishi bilan bog'liq muammolarni oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Avtomobil transporti yuk tashishning eng moslashuvchan va keng tarqalgan turi hisoblanadi. Uning asosiy afzalliklari: "eshikdan eshikka" xizmat ko'rsatish imkoniyati, tezkor yetkazib berish, kichik partiyali yuklarni tashish qulayligi va boshqa transport turlariga nisbatan pastroq boshlang'ich xarajatlardir. Yuk tashish tizimida ikki asosiy ishtirokchi mavjud: yuk egasi (yuboruvchi) va tashuvchi (transport kompaniyasi). Ba'zi hollarda ekspeditor — vositachi tashkilot ham qatnashadi, u tashishni tashkil qilish va hujjat ishlari bilan shug'ullanadi.

Yuk turlari bo'yicha tasnif: umumiy yuklarni tashish (standart qadoqlangan tovarlar), naviqdor yuklarni tashish (suyuqliklar, donli mahsulotlar), xavfli yuklarni tashish (yonuvchan, zaharli moddalar), tez buziladigan yuklarni tashish (oziq-ovqat mahsulotlari) va og'ir yoki gabaritli yuklarni tashish (qurilish texnikasi, uskunalar).

Transport kompaniyasini tanlashda bir qator mezonlarni hisobga olish zarur. Birinchidan, kompaniyaning rasmiy ro'yxatdan o'tganligi va tegishli litsenziyalarga ega ekanligi tekshiriladi. O'zbekistonda yuk tashuvchilari Davlat avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan litsenziyalanadi. Texnika parkini baholash ham muhim: mashinalarning soni, turi (yuk ko'tarish qobiliyati 3, 5, 10, 20 tonna va undan yuqori), yoshi va texnik holati inobatga olinadi. Zamonaviy GPS-monitoring tizimlari bilan jihozlangan transport vositalari afzalroqdir, chunki ular yukning real vaqt rejimida qayerda ekanligini kuzatish imkonini beradi.

Kompaniyaning tajribasi va obro'sini o'rganish uchun bozorda ishlash muddati, oldingi mijozlar sharhlari, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish sertifikatlari (masalan, ISO 9001), yuk yo'qotish yoki shikastlanish holatlari statistikasi hamda sug'urta polislarining mavjudligi tekshiriladi. Narxlarni solishtirish ham zarur, lekin eng arzon taklifni tanlash har doim ham to'g'ri emas. Sifatli xizmat, kafolat va kompaniya ishonchiligi ham hisobga olinishi kerak. Bir nechta kompaniyalardan kotirovka (narx taklifi) so'rash va ularni taqqoslash tavsiya etiladi.

Transport shartnomasi — bu yuk tashish bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan asosiy hujjatdir. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Avtomobil transporti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq tuziladi. Shartnomaning majburiy shartlari quyidagilar:

- Tomonlarning to'liq nomi va rekvizitlari (STIR, bank hisob raqami, manzil, telefon);
- Yuk to'g'risida ma'lumot: nomi, og'irligi, hajmi, qadoqlash turi, standartlar va sertifikatlar;
- Yuklash joyi va vaqti: aniq manzil, yuklash uchun tayyor bo'lish sanasi va soati;
- Yuk tushirish joyi va muddati: yetkazib berish manzili, belgilangan muddat;
- Tashish narxi: umumiy summa, nimalarga asoslangani (masofa, og'irlik, qo'shimcha xizmatlar);
- To'lov tartibi: oldindan to'lov foizi, qoldiq to'lov muddati, kechiktirish uchun jarima;
- Javobgarlik: yuk yo'qolishi, shikastlanishi yoki kechikishi holatlari uchun kompensatsiya miqdori;
- Sug'urta: yuk va fuqarolik javobgarligini sug'urtalash shartlari;
- Maxsus shartlar: harorat rejimi, tezkor yetkazib berish, qo'shimcha xavfsizlik choralar;
- Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish tartibi.

Shartnomaga qo'shimcha ravishda ilova qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar: yukning batafsil spetsifikatsiyasi, yuklash-tushirish sxemalari, marshrut xaritasi va majburiyatlarni bajarish grafigidir.

Transport xizmati uchun to'lovni hisoblash va amalga oshirishda to'lov summasini belgilaydigan omillar muhim ahamiyatga ega. Masofa — tashish masofasi qancha uzoq bo'lsa, narx shuncha yuqori bo'ladi. Odatda kilometr yoki mintaqa bo'yicha tariflar qo'llaniladi. Yuk parametrlari: og'irligi (tonnalarda), hajmi (kub metrd), zichligi. Agar yuk yengil, lekin hajmli bo'lsa, hajm bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Yuk turi bo'yicha qo'shimcha to'lovlar ham mavjud: xavfli yuklarni tashish (+30–50% qo'shimcha), tez buziladigan yuklarni tashish (+20–40%), qimmatbaho yuklarni tashish (+25–50% va majburiy sug'urta). Yuklash-tushirish xizmatlari: agar transport kompaniyasi yuklash-tushirish ishlarini bajarsa, bu alohida to'lanadi. Mexanizmlar (pogruzchik, kran) ishlatish ham qo'shimcha to'lov talab qiladi.

Qo'shimcha xizmatlarga ekspeditorlik xizmatlari, qadoqlash materiallari, qo'riqlov xizmati, ko'p nuqtali marshrut (bir necha joyda yuk tushirish) va tezkor yetkazib berish (24 soat ichida) kiradi.

Hujjatlashtirish — bu asosiy jarayon bo'lib, yuk beruvchi, tashuvchi va qabul qiluvchi o'rtasida yukning topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatdir. Unda yuk to'g'risidagi barcha ma'lumotlar, soni, og'irligi va holati ko'rsatiladi. Schyot-faktura to'lov uchun hisob-kitob hujjati bo'lib, unda xizmat nomi, miqdori, narxi va umumiy summa ko'rsatiladi. Bajarilgan ishlar dalolatnomasi xizmat ko'rsatilganidan keyin ikki tomon tomonidan imzolandi. Bu hujjat shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilganligini tasdiqlaydi. To'lov hujjatlari — bank to'lov topshirig'i, kassalik chek yoki elektron to'lov kvitansiyasidan iborat. Buxgalteriya hisobida bu hujjatlar asosiy dalil hisoblanadi.

Yuk mashinasini olish va tekshirish mas'uliyatli jarayon bo'lib, keyinchalik muammolarning oldini oladi. Haydovchining hujjatlari tekshiriladi: haydovchilik guvohnomasi (tegishli toifasi bilan), yo'llanma, TTN (yuk yo'llanmasi), transport vositasining texnik pasporti va sug'urta polisi (OSAGO — majburiy sug'urta). Mashinaning



texnik holati ko'rib chiqiladi: tormoz tizimining ishlashi, yoritish asboblari va signallar, shinalarning holati va bosimi, yuk tirkamasi yoki kuzovning butunligi, yopish tizimlari (tentlar, eshiklar, qulflar) va maxsus jihozlar (refrigerator, gidrobort). Mashinaning sig'imi va parametrlari yuk bilan mos kelishi tekshiriladi: yuk ko'tarish qobiliyati (mashinaning maksimal yuki), kuzovning o'lchamlari (uzunlik, kenglik, balandlik), hajmi (kub metrda) va maxsus talablar (harorat rejimi, ventilyatsiya). Yuklash oldidan tayyorgarlik: kuzovni tozalash va quritish, zarur hollarda dezinfeksiya qilish, yukni mahkamlash uchun uskunalar (tasmalar, arqonlar, tirgaklar) tayyorlash, yuk ostiga qo'yish uchun taglik yoki poydevor tayyorlash.

Yuklash ishlari va xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi muhim va ishning davomli bo'lishini kafolatlovchi asosiy omildir. Misol uchun aytishimiz mumkin: yukning tayyorlanishi — yuk to'g'ri qadoqlanganligini, etiketkalanishini va hujjatlari borligini tekshirish. Har bir quti yoki yashikda yuk nomi, og'irligi, ishlab chiqaruvchi va maxsus ko'rsatmalar (masalan, "Sinish xavfi", "Yuqoriga", "Namlikdan saqlash") ko'rsatilishi kerak. Yuklash tartibini rejalashtirishda og'ir yuklarni pastga va old tomoniga, yengil yuklarni tepaga joylashtirish prinsipi qo'llaniladi. Yuk tushirish ketma-ketligi ham hisobga olinadi: oxirgi tushiriladigan yuk birinchi yuklanadi. Yuklash mexanizmlari — forklift (pogruzchik) yoki kran ishlatilsa, ular sertifikatlangan operator tomonidan boshqarilishi va texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi kerak.

Yukning mahkamlanishi — bu eng muhim bosqich. Yuk tez-tez harakatlanish, tormozlash va burilishlarda siljishi mumkin. Mahkamlash uchun tasmalar, arqonlar, tirgaklar, to'siqlar va rezina prokladkalar ishlatiladi. Og'irlik markazi mashinaning o'rtasida bo'lishi va yukning tepaga osilib turmasligi kerak.

Shaxsiy himoya vositalari — yuklash ishlarida ishtirok etadiganlar qattiq taglikli poyabzal, qo'lqop, shlem va zarur hollarda ko'zoynak taqishlari shart. Og'ir yuklarni ko'tarish texnikasi — to'g'ri tana holati bilan, orqadan emas, balki oyoqlardan foydalanib ko'tarish kerak. Maksimal ruxsat etilgan og'irlik bir kishi uchun 50 kg. Xavfli yuklarni yuklashda maxsus qoidalar — alanganuvchi manbalardan foydalanmaslik, ventilyatsiyani ta'minlash, zarur hollarda niqobdan foydalanish, xavfli moddalar bilan ishlash bo'yicha o'qitilgan xodimlarni jalb qilish va tegishli belgilarni joylashtirish. Yuklash protokoli — yuklash yakunlangach, yuk beruvchi va haydovchi quyidagilarni tekshiradilar: yuk soni va og'irligining TTN bilan mos kelishini, yukning zararlanmaganligini va to'g'ri mahkamlanganligini, barcha hujjatlarning mavjudligini. Ikki tomon TTNga imzo qo'yadilar va muhrlaydilar.

Xalqaro yuk tashish — CMR konvensiyasi va hujjatlari xalqaro avtomobil transportida yuk tashish CMR konvensiyasiga (1956-yil, Jeneva) asoslanadi. O'zbekiston bu konvensiyaga a'zo davlatdir. CMR — "Convention relative au contrat de transport international de marchandises par route" — yo'l orqali xalqaro yuk tashish shartnomasi to'g'risidagi konvensiyadir. CMR-yo'llanma (CMR consignment note) — bu xalqaro standart shakldagi hujjat bo'lib, yuk tashish shartnomasini tasdiqlovchi qimmatli hujjat hisoblanadi. U uch nusxada to'ldiriladi: birinchi nusxa (qizil) — yuk beruvchida qoladi, ikkinchi nusxa (ko'k) — yuk bilan birga boradi va qabul qiluvchiga topshiriladi, uchinchi nusxa (oq) — haydovchida qoladi. CMR-yo'llanmada quyidagilar ko'rsatiladi: yuboruvchining to'liq nomi va manzili, qabul qiluvchining to'liq nomi va manzili, yuklash joyi va sanasi, tushirish joyi, yuk tavsifi (nomi, og'irligi, hajmi, qadoqlash turi, dona soni), yukning qiymati (bojxona uchun), tashish to'lovi va to'lov tartibi, maxsus ko'rsatmalar (harorat, ehtiyotkorlik choralari), tomonlarning imzolari va muhrlari.

Bojxona rasmiylashtiruvchi yuk chiqarilayotganida amalga oshiriladi. Kerakli hujjatlar: eksport deklaratsiyasi, shartnoma (kontrakt), invoice (schiyot-faktura), packing list (qadoqlash ro'yxati), sertifikatlar (sifat, kelib chiqish) va CMR. Tranzit — agar yuk uchinchi davlat orqali o'tayotgan bo'lsa, tranzit deklaratsiyasi to'ldiriladi va tranzit boj to'lovi (ba'zan kafolat depoziti ko'rinishida) amalga oshiriladi. TIR Carnet (TIR daftari) tizimi bu jarayonni soddalashtiradi. Import bojxona rasmiylashtiruvchi — yuk manzil davlatida bojxonadan o'tkaziladi. Kerakli hujjatlar eksportdagidek, qo'shimcha ravishda import ruxsatnomasi (agar zarur bo'lsa) va to'lov hujjatlari talab etiladi.

Xalqaro tashishda sug'urta yuk qiymati asosida sug'urta polisi rasmiylashtiriladi. Odatda yuk qiymati +10% miqdorida sug'urtalanadi. Sug'urta holatlari: yuk yo'qolishi, o'g'irlanishi, shikastlanishi, tabiiy ofatlar natijasida zarar ko'rishi. Fuqarolik javobgarligi sug'urtasi tashuvchining uchinchi shaxslarga yetkazishi mumkin bo'lgan zarar uchun rasmiylashtiriladi. Bu ko'pchilik Yevropa davlatlarida majburiy hisoblanadi. TIR sug'urtasi — TIR Carnet tizimi orqali tashishda IRU (Xalqaro avtomobil transport ittifoqlari) tomonidan kafolatlanadi.

Xalqaro tashishda maxsus talablar mavjud va bu barcha haydovchilar uchun zarur hisoblanadi. Misol uchun, haydovchilik guvohnomasi — milliy haydovchilik guvohnomasi bilan birga xalqaro namunadagi guvohnoma (IDP) bo'lishi tavsiya etiladi. Viza va ruxsatnomalar — haydovchi uchun viza (agar kerak bo'lsa), tashuvchi uchun ruxsatnoma (bilateral yoki multilateral), xavfli yuklarni tashish uchun ADR sertifikati talab etiladi. Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish har bir davlatning qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi: tezlik cheklavlari, dam olish talablari (haydovchi 4,5 soatdan keyin 45 daqiqa dam olishi shart), yo'l to'lovlari (vinetka, yo'l yig'implari). Taxograf — Yevropa Ittifoqida va ko'plab boshqa davlatlarda yuk mashinalariga taxograf o'rnatilishi majburiy. U haydovchining ish rejimi, tezligi va dam olish vaqtini qayd qiladi.

Transport logistikasida axborot tizimlari: TMS (Transport Management System) — tashishlarni boshqarish tizimi hisoblanadi. U buyurtmalarni boshqarish, marshrutlarni optimallashtirish, transport vositalarini kuzatish, hujjatlarni avtomatik yaratish va hisobotlar tayyorlash funksiyalarini bajaradi. GPS/GLONASS monitoring —



transport vositalarining real vaqt rejimida joylashuvini kuzatish, yonilg'i sarfini nazorat qilish, marshrutdan chetlanishni aniqlash va haydovchi xatti-harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Elektron hujjat almashish (EDI) — hujjatlarni elektron shaklda almashish tizimi. CMR-yo'llanma, invoice va boshqa hujjatlarning elektron versiyalari ham qonuniy kuchga ega. Mobil ilovalar — haydovchilar uchun yo'nalish, yuk holati, yonilg'i quyish punktlari va yo'l masalalari bo'yicha real vaqt rejimida ma'lumot beradigan ilovalardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuklarni tashish va transport hujjatlarini rasmiylashtirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, D. Ballou logistika va transport tizimlarini boshqarish bo'yicha ilmiy qarashlarida transport hujjatlarining yuk harakatini nazorat qilish va logistika samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab bergan. J. Coyle esa xalqaro transport operatsiyalarida CMR, konosament va bojxona hujjatlarining huquqiy ahamiyatini tahlil qilgan.

Rossiyalik olimlardan V.V. Lukinskiy va A.M. Gadjinskiy transport logistikasi hamda yuk tashishni tashkil etish jarayonlarida hujjatlashtirishning o'rni, tashish xavfsizligi va javobgarlik masalalarini o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida xalqaro transport konvensiyalarining amaliy ahamiyati alohida yoritilgan.

Mahalliy olimlardan A.A. Maxmudov va H.A. Ne'matov transport-logistika tizimini rivojlantirish, yuk tashish jarayonlarini tashkil etish hamda transport hujjatlarini rasmiylashtirish tartiblarini tadqiq qilganlar. Olimlarning ilmiy ishlarida zamonaviy logistika texnologiyalari, elektron hujjat almashish tizimlari va xalqaro yuk tashishdagi huquqiy asoslarning ahamiyati tahlil etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida yuklarni tashishda qo'llaniladigan transport hujjatlarining mazmuni, vazifalari va ularni rasmiylashtirish tartibi o'rganildi. Shuningdek, avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz transportida foydalaniladigan hujjatlarning o'ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini transport va logistika sohasiga oid milliy hamda xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar, CMR konvensiyasi, bojxona qoidalari va ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tahlillar asosida transport hujjatlarining yuk xavfsizligini ta'minlash, hisob-kitoblarni yuritish va tashish jarayonidagi javobgarlikni belgilashdagi ahamiyati baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport kompaniyalarida amaliyot o'tash — dispatcherlik xizmatida, logistika bo'limida yoki hatto haydovchi yonida yo'lda kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bu real jarayonlarni ko'rish va hujjatlar bilan ishlashni o'rganish imkonini beradi. Treninglar va seminarlar — transport qonunchiligi, xalqaro konvensiyalar, yangi texnologiyalar hamda xavfsizlik standartlari bo'yicha o'quv kurslarini o'z ichiga oladi. Sertifikatlash — logistika bo'yicha xalqaro sertifikatlar (masalan, FIATA diplomi), xavfli yuklarni tashish bo'yicha ADR sertifikati, bojxona brokerligi litsenziyasi kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Chet tili — xalqaro tashish bilan shug'ullanish uchun ingliz tili va/yoki rus tilini bilish zarur. Hujjatlar ko'pincha ingliz tilida to'ldiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuklarni tashishda transport hujjatlari yuk xavfsizligini ta'minlash, tashish jarayonini nazorat qilish va tomonlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. CMR-yo'llanma, schyot-faktura, bojxona hujjatlari va sug'urta polislar yuk tashishning asosiy hujjatlari hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, elektron hujjat almashish tizimlari, GPS monitoring va zamonaviy logistika texnologiyalaridan foydalanish tashish samaradorligini oshiradi. Shu sababli transport hujjatlarini raqamlashtirish, logistika tizimlarini modernizatsiya qilish hamda mutaxassislar malakasini oshirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matkarimov K.J., Mahmudov B.J., Norqulov A.A. *Avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar*. — Toshkent: "Talqin" nashriyoti, 2012. — 304 b.
2. A.A. Maxmudov, H.A. Ne'matov. "The Procedure for Drawing up Legal Grounds and Documents for Tuning." *PEDAGOGS*, 220–222-betlar.



3. A.A. Maxmudov. "Iqtisodiy salohiyatni oshirishda transport-logistika tizimining o'rnini." *Muhandislik va Iqtisodiyot* jurnali, 2024-yil, noyabr, №4-son.
4. A.A. Maxmudov, H.A. Ne'matov. "Avtotyuning tushunchasi, turlari va tasnifi." *Muhandislik va Iqtisodiyot* jurnali, 2025-yil, aprel, №4-son, 581–585-betlar.
5. A.A. Maxmudov, H.A. Ne'matov. "Tyuning uchun huquqiy asoslar va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi." *Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation*, Vol. 3, №2, 2025-yil, fevral, 306–311-betlar.
6. A.A. Maxmudov, H.A. Ne'matov. "Yuk tashishning asosiy elementlari." *Universal Journal of Technology and Innovation*, 69–71-betlar.
7. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. "Avtomobil dvigatel tyuningi." *Development of Science*, 2025, Vol. 11, №1, 95–100-betlar.
8. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. "Basic Elements of Cargo Transportation." *Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education*, 2025, 34–37-betlar.
9. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. "Concept, Types and Classification of Autotuning." *GALAXY*, 2025, 123–130-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>